

ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANINI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLAR

Jahongir Komiljonov

Namangan davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi,

KIUT, Xorijiy tillar kafedrası o‘qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Ulug‘bek xazinası” romanini maktab darslarida o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning samarali yo‘llari ochib beriladi. Unda asarni o‘rganishda qo‘llaniladigan “Rolga kirish”, “Insert”, “Klaster” kabi metodlar yordamida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tarixiy obrazlarni anglash va adabiy tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanishi ta’kidlanadi. Interfaol yondashuv o‘quvchilarda nafaqat matnga qiziqish uyg‘otadi, balki ularda vatanparvarlik, ilmga hurmat va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini rivojlantirishga xizmat qilishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, interfaol metodlar, adabiy ta’lim, tarixiy roman, dars jarayoni, tanqidiy fikrlash, rolga kirish, klaster, ilmiy tafakkur, o‘quvchilar faolligi.

O‘zbek adabiyotining tarixiy roman janridagi muhim namunalaridan biri bo‘lgan “Ulug‘bek xazinası” asarini o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, nafaqat o‘quvchilarning asarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning tanqidiy fikrlashi, tahliliy yondashuvi va ijodiy salohiyatini ham rivojlantiradi. Ushbu asar nafaqat buyuk tarixiy shaxs – Mirzo Ulug‘bekning ilm-fan, adolat va taraqqiyot yo‘lidagi fidoyiligi haqida hikoya qiladi, balki unda jamiyat, insoniy qadriyatlar, din va ilm o‘rtasidagi murakkab munosabatlar chuqur yoritilgan.

Dars jarayonida “Aqliy hujum”, “Insert”, “Klaster”, “Fikrlar kartasi”, “Rolga kirish” kabi interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini faollashtiradi. Masalan, “Rolga kirish” usuli orqali o‘quvchilar Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi

tarixiy shaxslar obraziga kirib, ular orasidagi munozaralarni sahnalashtirish orqali nafaqat matnni chuqur anglaydilar, balki o'sha davr muhitini, ilm-fanga bo'lgan munosabatni ham his qilishadi.

Shuningdek, "Insert" metodidan foydalangan holda o'quvchilar asarni o'qish davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan, yangilik bo'lgan yoki tushunarsiz bo'lgan joylarni belgilab borishadi. Bu metod o'quvchilarni o'z fikrini asoslashga, savol berishga va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. "Klaster" usuli orqali esa asarda ilgari surilgan g'oyalar, muammolar va xarakterlar o'rtasidagi bog'liqliklar grafik shaklida ko'rsatiladi, bu esa murakkab tarixiy voqealarni yengilroq anglashga yordam beradi.

Interfaol metodlar orqali o'quvchilarda asarga nisbatan tanqidiy qarash shakllanadi. Ular faqatgina matnni o'rganish bilan cheklanmay, balki o'z zamonasi bilan qiyoslab, tarixiy xulosalar chiqarishga intiladilar. "Mirzo Ulug'bek" romani orqali o'quvchilarga ilmning yuksak qadri, tarixiy shaxslarning jasorati va ma'naviy boyligi haqida chuqur tushuncha berish mumkin. Bu esa ularni ilmiy tafakkur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Mazkur asarni umumiy o'rta ta'limning 9-sinfi adabiyot darslarida "Zinama-zina" yoki "6x6x6" usulida o'rganishni va 2-3-chizmalar asosida Mirzo Ulug'bek qiyofasiga xos insoniy fazilatlarning hayotiy asoslarini belgilash, bu axloqiy-ma'naviy fazilatlarga tayangan holda o'quvchilarda millatsevarlik, vatanparvarlik mardlik, rostgo'ylik kabi insoniy xislatlar bilan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga urinish samara keltiradi. Bunda o'quvchilar asarni mustaqil idrok etishlari, dramadagi har bir personajning harakatlarini asarda tutgan o'rni hamda insoniy sa'jijasidan kelib chiqqan holda baholashi ko'zda tutiladi.

6-pog'ona

Asar yechimini tahlil qilib, uning badiiy qimmatini va tarbiyaviy jihatlari yoritish
--

5-pog'ona

Ali Qushchi va Ulug'bek uchrashuvlari tasvirini tahlil qilib, hayotiy xulosalar chiqarish

4-pog'ona

Ulug'bekka xos xususiyat, xislatlarni asar matni asosida yoritish

3-pog'ona

Asar g'oyasini tahlil qilish

2-pog'ona

Asardagi tarixiy shaxslar va to'qima obrazlar tahlili orqali bosh qahramon qiyofasini tasavvur etish
--

1-pog'ona

“Ulug'bek xazinasini” – asar sarlavhasi tahlili

Umumta'lim o'rta maktablarning bitiruvchi sinfi o'quvchilariga “Ulug'bek xazinasini” dramasini o'rgatishda “tarmoqlar” interfaol usulidan foydalanish ham mumkin. Bunda

o'spirinlar dramadagi turli obrazlarning o'zaro munosabatlar tarzi tasviriga ko'proq e'tibor qiladilar. Asardagi turli personajlar tasviri bosh qahramon tabiatini ochishga qanchalik xizmat qilgani, asar konfliktining yechilishida qanday o'rin tutgani baholanadi. Bu usulda ham sinfdagi o'quvchilar ularning oldiga qo'yiladigan muammolar miqdoriga qarab kichik guruhlariga bo'linadi. Quyidagi chizmada "tarmoqlar" usulini qo'llab, "Ulug'bek xazinasini" romanida muallif a) obrazlar tizimi; b) badiiy til; v) badiiy tasvir vositalaridan qanday foydalanganligini aniqlash jarayoni aks ettirilgan:

"Ulug'bek xazinasini" romanini "Tarmoqlar" metodida o'rganish

1-guruhcha (5-6 o'quvchi asar g'oyasini obrazlar tizimiga bog'lab tahlil qilish chizmasini yaratadilar).

2-guruhchadagi o'quvchilar asar g'oyasini badiiy til xususiyatlari bilan bog'lab o'z chizmalarini yaratadilar.

3-guruhchadagi o'quvchilar esa asar g'oyasini asar kompozitsiyasi bilan bog'lab tahlil qilish chizmasini yaratadilar. Qolgan guruhchalardagi o'quvchilar ularni to'ldiradilar yoki kamchilik yo xatolarni to'g'rilaydilar. Xulosalar chiqaradilar yoki ular ham asarni tahlil qilishga oid o'z chizmalarini yaratadilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "Ulug'bek xazinasini" romani yuzasidan "Adabiyot" darsligida tuzilgan savol-topshiriqlar metodik jihatdan ancha puxta bo'lib, yo'naltiruvchi xarakterga ega. Shuning uchun ham ular yordamida dramani atroflicha tahlil etish mumkin.

O'quvchilarni tayyor fikrlarni shundayicha qabul qilishga emas, balki o'z qarashlariga ega bo'lishga o'rgatish ularga tayyor bilimlarni singdirishdan muhimroq deb qaralayotgan hozirgi kunlarda dramani "Burchaklar", "Zinama-zina", "Tarmoqlar" interfaol usullarida o'rganish kutilgan didaktik samarani beradi. Shuni aytish kerakki, darslikda dramadan olingan parcha yaxlit emas, unda biror voqea tasviri mantiqiy yakuniga qadar etkazilmagan. Chamasi, darslik hajmining sun'iy ravishda haddan tashqari kichraytirib yuborilgani asardan olingan parchaning shu holatga keltirilishiga sabab bo'lgan. Shuning

uchun dramani o'rganishga ajratilgan birinchi soatda darslikdagi parchadan foydalanilsa, "burchaklar" usuli qo'llaniladigan ikkinchi soatda asarning originalidan amir Temur va Boyazid to'qnashuvi sahnasini uyda o'qib kelishga berib, so'ng sinfda uning muhokamasini o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilinganda, drama qahramonlarining xatti-harakatlari tabiiy ravishda sinfdagi o'quvchilarda turlicha qarashlarni yuzaga keltiradi. Har bir o'ziga xos qarash alohida bir "burchak"ni tashkil etadi. Sinfda mustaqil fikrlaydigan o'quvchilar qancha ko'p bo'lsa, "burchaklar" soni ham shunga mos ravishda ortib boradi. Mirzo Ulug'bekning xatti-harakatlarida sog'lom mantiq, ma'naviy asos, shar'iy yo'l, siyosiy huquq ko'rgan o'quvchilar bir burchak, Olim Ali Qushchining tutum va yo'llarida haqlik tuyganlar boshqa bir burchak, Abdulatif yoki Qalandar Qarnoqiy kabi qahramonlar pozitsiyasini ma'qul ko'rganlar o'ziga xos burchaklar hosil qiladi. Shunday o'quvchilar ham topiladiki, ular personajlarga baho berolmaydilar, binobarin, bu asar bo'yicha hech qanday qarashga ega bo'lmaydilar. Bundaylar ham o'ziga xos bir "burchak"ka birikishadi. Bir xil qarashdagi o'quvchilar sinfning o'ziga tegishli burchagini egallaydilar. Usulning nomi shundan kelib chiqqan.

Turli "burchaklar"dagi o'quvchilar "Ulug'bek xazinasini" romani matniga tayangan holda o'z qarashlarini asoslashga kirishganlaridan so'ng, "burchaklar" miqdori ham, ulardagi o'quvchilar soni ham o'zgarib ketadi. Qarashlarning haqqoniyligi, matn bilan asoslanganligi "burchaklar"ning og'ishiga, ya'ni qaysidir bir fikrning tarafdorlari ko'payib, qaysidir bir qarashning ma'qullovchilari kamayishiga sabab bo'ladi. Ayrim "burchaklar" yedirilib, a'zolari boshqasiga qo'shilib ketishi ham mumkin. Muhimi, o'quvchilar dramadagi personajlar tasviri yuzasidan o'ylay boshladilar, ularning xatti-harakatlariga baho beradilar.

Xulosa qilib aytganda, "Mirzo Ulug'bek" romanini interfaol metodlar asosida o'qitish nafaqat adabiy-estetik bilim beradi, balki o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, ijodiy fikrlashi va milliy o'zlikni anglash tuyg'usini mustahkamlaydi. Shu boisdan ushbu yondashuv zamonaviy ta'lim talablariga to'liq javob beradi va amaliy natijadorligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari.// Xalq ta'limi. 1997. №4. 4 -12 b.
2. Ziyodullaeva N.Sh. O'zbek adabiyotshunosligida ijodkor biografiyasini o'rganish muammolari. (A.Qahhor hayoti va ijodi asosida). Fil.fan.nom.diss... avtoref. -T.: 2000. – 26 b.
3. Zokirov I. Kasb-hunar maktablari o'qituvchilari o'rtasida yangi pedagogik texnologiyani targ'ib etish.// Uzluksiz ta'lim. -Toshkent, 2002. 5-son, Z-10-b.
4. Иванов В.: Туре Л. и др. Педагогическая деятельность: проблемы, сложности. // Высшее образование в России. 1997. №4. 29-32 с.
5. Ионин Г.Н. Изучение литературного произведения в школе. – Ленинград.: «Наука», 1976.